

**BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA  
TASHKIL ETISH****Xoldarova Zulxumor Yuldashevna***Andijon viloyati Shahrixon tumani 13-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Maqolada boshlang'ich ta'limni innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish hamda o'qituvchi maqsadlarga erishish uchun yangi rejalarni belgilab olishining muhimligi haqida yozilgan. Umumta'lim maktablarning fundamental qismi bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifalari haqida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsiya, ta'lim, moderniyatsiya, ona tili, o'qish matematika, fundamental.*

Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak deb keltirib o'tganidek, biz oldimizdagi maqsadlarga erishish uchun yangi rejalarni belgilab olishimiz talab etiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy bog'in hisoblangan umumta'lim maktablarning aynan fundamental qismi bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va bu tizimda oqitiladigan barcha fanlarni qilish asosiy vazifamiz bo'lmog'i lozim. Bola aynan 7 yoshda maktabda tahsil olish uchun qabul qilinadi va shu yoshda dunyoviy bilimlarni egallashga tayyor bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida yetarli bilim ko'nikmalarga ega bo'lib kelgan bolalar maktabga kelganda bu ko'nikmalar yanada chuqurlashtirilib nazariy bilimlar bilan boyitiladi. Bunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni uzviy yo'lga qo'yish masalalariga ham teran yondashuvlar talab qilinadi. Boshlang'ich ta'lim rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Ko'pgina davlatlarning ta'lim tizimini o'rganish davomida boshlang'ich ta'limga alohida o'ringa ega ekanligi va o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni egallash doirasi kengro ekanligi aniqlangan. Aynan sharq mamlakatlarida boshlang'ich sinfdayoq o'quvchilar murakkab masalalarni osonlik bilan esga olishga o'rgatib borilgan va bu mamlakatning shiddat bilan rivojlanishida o'z ahamiyatini ko'rsatmoqda.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan asosiy predmentlar bular ona tili, o'qish va matematika darslaridir. Biz bu darslarning yanada samaradorligini oshirish, fanlarni o'qitishning ilg'or texnologiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida jahon tajribasida sinalayotgan usullardan tolaqonli foydalanishga erishishimiz zarur. Bulardan biri integratsion ta'limdir. "Integratsiya - differentsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zara yaqinlashuvi va bog'liqligida ko'rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog'liklikning yuqori shaklida namayon bo'ladi" eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi.

Har bir fanda o'tilayotgan dars mavzusi o'zining ta'limiy maqsadidan sheklanmagan holda ingliz tili bilan solishtirish va lug'at mashqlari o'quvchining tilni o'rganishdagi qiyinchiliklarini yengishiga yordam berib, ingliz tili bo'yicha sovodhonligini oshiradi. Dars davomida fanni ingliz tili bilan bog'lashda mashq 3-5 daqiqadan ortmasligi va o'quvchilarning o'zlashtirish doirasiga ham ta'sir qilmasligi kerak. Shuning uchun asosan nimalarga e'tibor berish kerak; bular: so'zlarning A1 darajadaliigi, atamalarning o'qilishi va yozilishining qisqa, tushunarli bo'lishi va kerakli hajmdan oshmasligi. Buning uchun albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlari ingliz tilidan kerakli bilimlarga ega bo'lishi va kerakli ma'lumotlarni izlab topish uchun o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim. Bu ikkinchi hihatdan o'qituvchining ingliz tili bo'yicha lug'at boyligini oshirib borish uchun ham xizmat qiladi. Ta'limni modernizatsiyalashda mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda fanlarning o'zaro ingliz tili bilan bog'liqlik jihatlarini o'rganib chiqish, solishtirish asnosida natijalar hosil qilish talab qilinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Azbarov Y. T. Bolalarni sevish san'ati. T.:O'qituvchi.1991. 138-b.
2. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.
3. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. 2017.
4. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013.